

7-sinf. O‘zbek tili (Davlat tili)

BSB-1 (20 ball)

O‘zbekiston sporti

O‘zbekiston sporti yildan yilga rivojlanmoqda. Tokio-2020 Olimpiadasida 67 nafar sportchimiz 17 yo‘nalishda ishtirok etib, 3 oltin va 2 bronza medal bilan umumjamoa hisobida 32-o‘rinni egalladi. 2024-yil Parij Olimpiadasida esa 90 nafar sportchimiz 19 yo‘nalishda 8 oltin, 2 kumush va 3 bronza medal olib, 13-o‘ringa ko‘tarildi. U-17 futbol terma jamoasi Jahon chempionatiga yo‘l oldi. Sportchilarimiz Eldor Shomurodov, Abduqodir Xusanov va Abbosbek Fayzullayevlar xalqaro maydonda yurtimiz sha‘nini munosib himoya qilmoqdalar.

BSB-1 bo‘yicha amaliy topshiriqlar:

1. Matndagi fe‘l so‘z turkumiga oid so‘zlarni topib yozing. **(2 ball)**
2. Matnda berilgan fe‘l so‘z turkumidagi so‘zlarga -a/-y qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib ko‘chiring. **(3ball)**
3. Matndan o‘zlik nisbatdagi fe‘llarni toping va ular ishtirokida gap tuzing. **(3 ball)**
4. Matndan shaxs otlari va nomlarini topib yozing. **(2ball)**

Har bir to‘liq bajarilgan topshiriq uchun belgilangan 2-3 ball, jami 10 ball.

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta’lim maktablarda o‘zbek tilini o‘qitishda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi, grammatik vositalarning so‘zlarga qo‘shilishi bilan bog‘liq imlo qoidalarini bilishlari va ushbu qoidalarga amal qilishlari zarurligi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, tinish belgilarini o‘tilgan mavzular doirasida to‘g‘ri qo‘llay olishlari zarurligi hisobga olingan.

Diktantni baholashda quyidagi mezon belgilanadi:

№	Baholash mezonlari	Ball
		10
1	matn husnixat bilan yozilgan, imlo xatolarsiz, yoki 3 tagacha imloviy, 3 tagacha ishoraviy xatolar mavjud bo'lsa;	10
2	matn husnixat bilan yozilgan, imlo xatolar soni 4 tagacha, ishoraviy xatolar 4 tagacha bo'lsa;	9
3	matn imlo qoidalariga asosan yozilgan, 5 tagacha imlo xatolar, 5 tagacha ishoraviy xatolar mavjud bo'lsa;	7-8
4	matn imlo qoidalariga asoslanib yozilmagan, 7 tagacha imlo xatolar, 7 tagacha ishoraviy xatolar mavjud bo'lsa;	5-6
5	matn imlo qoidalariga asoslanib yozilmagan, 9 tagacha imlo xatolar, 9 tagacha ishoraviy xatolar mavjud bo'lsa;	3-4
6	matn imlo qoidalariga asoslanib yozilmagan, 10 tagacha imlo xatolar, 10 tagacha ishoraviy xatolar mavjud bo'lsa;	1-2
7	imlo xatolar soni 12 va undan ortiq bo'lganda diktant baholanmaydi yoki 0 qo'yiladi	0

● **Eslatma:**

1. Diktantda xatolar soni har xil bo'lsa, baholashda imloviy xatolar soniga qaraladi.
2. Tuzatishlar soni 5 tadan oshsa 1 ball pasaytiriladi.
3. Diktantda bir so'zdagi xato takror uchrasa 1 xatoga hisoblanadi.

- **Ogohlantirish:** o'quvchi **diktantni** xatosiz yozgan bo'lsa, lekin husnixati talab darajasida bo'lmasa 1 ball olib tashlanadi.

Maktab:	
Sinf:	7__
Fan:	O'zbek tili
Sana:	
Nazorat ishi:	Topshiriqli diktant
Maqsadi:	BSB-1
Chorak:	I

O'quvchining F.I _____

To'plagan bali _____

Fan o'qituvchisi : _____

Jami ball: 10 ball

BSB-1 bo'yicha amaliy topshiriqlar:

1. Matndagi fe'l so'z turkumiga oid so'zlarni topib yozing. (2 ball)

2. Matnda berilgan fe'l so'z turkumidagi so'zlarga -a/-y qo'shimchalaridan mosini qo'yib ko'chiring. (3ball)

3. Matndan o'zlik nisbatdagi fe'llarni toping va ular ishtirokida gap tuzing. (3 ball)

4. Matndan shaxs otlari va nomlarini topib yozing. (2ball)
